



19«12»2022 yil.

1193-1-23-TB/2022-son

## PUDRAT SHARTNOMASI

Ushbu pudrat shartnomasi «Buyurtmachi» deb ataluvchi Qorasuv shahar Tibbiyot birlashmasi uning nomidan nizom asosida ish olib boruvchi raxbari U.Urinboev bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi **“Xon Sanoat Montaj” MCHJ** va uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **I.Sobirov** ikkinchi tomondan binoni mukammal ta'mirlash ishlariga doir pudrat shartnomasini tuzdilar ushbu xaqida:

### 1. Shartnomaning mavzusi

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» «Qo'rg'ontep tuman Qorasuv SHTB KTMPsi mavjud binosining yerto'la qismini joriy ta'mirlash» ishlarini defektniy akt va smeta xujjatlariga hamda 14.12.2022 yil kungi №22110012207182 lotga asosan mukammal ta'mirlash ishlarini bajarib beradi.

### 2. Shartnomaning bahosi va hisob-kitob tartibi

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan loyixa smeta asosida to'liq bajaradi va pudrat ishlarining umumiy qiymati 1 147 500 000 (Bir milliaad bir yuz qirq yeti million besh yuz ming) so'mni tashkil etib ta'mirlash ishlarini 60 kun mobaynida sifatli qilib bajarib beradi.

2.2. Bajariladigan ishlar qiymati uzil kesil hisoblanib, faqatgina ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganidan va fors major holatlari sabab bo'lganida qayta ko'rib chiqilib, tomonlar o'rtasida qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

2.3. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingandan so'ng 5 bank ish kunida «Buyurtmachi» bajariladigan ishlar umumiy qiymatining 15 foizini 172 125 000 (Bir yuz etmish ikki million bir yuz yigirma besh ming) so'mni, oldindan avans tariqasida «Pudratchi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 85 foizi, ya'ni 975 375 000 (Toqqiz yuz etmish besh million uch yuz etmish besh ming) so'mini «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar dalolatnomasi ( F-3 ) asosida o'tkazib beradi.

2.5. «Buyurtmachi» oxirgi to'lovni «Pudratchi» tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish – topshirish dalolatnomasi (F-3) va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida o'tkazib beradi.

2.6. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar «Buyurtmachi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

### 3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

#### 3.1. «Pudratchi»ning majburiyatlari

Shartnoma imzolanganidan so'ng ish bajarilgan obektни «Buyurtmachi»dan dalolatnomaga (F-2) asosan qabul qilib oladi. Mazkur shartnomada ilova qilinadigan loyiha smeta xujjatiga muvofiq birinchi avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida ishlarni bajarishga kirishadi. Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjatlariga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish xamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

#### 3.2. «Pudratchi»ning huquqlari

Bajarib berilgan ish uchun oldindan avans haq to'lanishi va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la hajmda xisob-kitob qilinishini talab qilish;

Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplashini talab qilish;

#### 3.3. «Buyurtmachi» ning majburiyatlari

Tasdiqlangan smeta bo'yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish;

Bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida haq to'lash;

#### 3.4. «Buyurtmachi»ning huquqlari

«Pudratchi»dan amaldagi davlat standartlariga va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Pudratchi»dan shartnomada ko'rsatilgan ishlarni qabul qilish kommissiyasi ishtirokida smeta hujjatlari asosida ishni sifatli bajargan holda qabul qilib olish;

«Pudratchi» tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarni shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish;

### 4. Tomonlarning javobgarligi.

**O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi subektlarni faoliyatni shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan belgilanadi.**

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «Pudratchi» ob'ektni o'z vaqtida topirishmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0.5 foiz miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan jarima summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Pudratchi» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa «Buyurtmachi» to'lovlar to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 foizi miqdorida «Pudratchi» jarima to'laydi.

4.4. Bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida haq to'lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan jarimaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 foiz miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

## 5. Fors major **holatlar.**

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

### 5.2 KORRUPSIYA GA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi: a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tUSDagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy

naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga; b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga; v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarlariga) nisbatan quyidaagi harakatlarni amalga oshirishlari shart: - korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish; - ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik; - ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish; - ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## 6. Shartnomani o'zgartirish, bekor qilish va nizolarni **hal qilish tartibi**

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muhokama yo'li bilan hal etiladi. Agarda o'zaro muhokama yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmasa Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisod sudi orqali hal etiladi.

## 7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Shartnoma tomonlar muhri bilan imzolanib, xududiy G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va 2023 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham huquqiy jihatdan teng kuchli hisoblanadi.

## 8. Tomonlarning rekvizitlari

«Pudratchi»

Nomi: **Xon Sanoat Montaj MCHJ**

Manzili: Xonobod sh. Qoradaryo 62  
Bank nomi: QQBank Qo'rg'ontepa f.  
X/r: **202 08 000 604 252 490 001**

MFO: 01037

STIR (INN): 204 471 356

XXTK (OKONX): 61124

«Buyurtmachi»

Nomi: Qorasuv shaxar tibbiyot birlashmasi  
Manzili: Qorasuv shaxar Andijon kucha 1  
uy

X/ P 401722860032207072110054001  
STIR (INN):200252702

XXTK (OKONX): 91511

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi  
G'aznachiligi

X/R: 23402000300100001010  
INN:201122919 MFO:00014

Banki: Markaziy bank XQQM

Raxbar:  I. Sobirov

Raxbar: \_\_\_\_\_ U Urinboev



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	UKTAMJON URINBAYEV DJUMABAYEVICH
Imzolangan sana	19.12.2022 10:21
Hujjat kodi	<b>UH6654585177</b>
Hulosa kodi	<b>ZO5475520007</b>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

ZO5475520007

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Xon Sanoat Montaj MCHJ bilan pudrat shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Qorasuv shaxar tibbiyot bo‘limi tomonidan 19.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qo‘rg‘ontepa tuman  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**SH.A.NE'MATOV**  
19.12.2022

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 207182 на приобретение Qorasuv shahar Tibbiyot birlashmasi KTMPning podval qismini xonalar yetishmasligi sababli kasallar qabul qilish uchun xonalarga o'zgartirish joriy ta'mirlash**

Способ проведения электронный

Дата 15.12.2022

Время рассмотрения 06.12.2022 12:46

Конкурсная комиссия Корасув шахар тиббиёт бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	URINBAYEV UKTAMJON DJUMABAYEVICH	ТТБ Бошлиги	комиссия раиси
<b>Секретарь комиссии</b>	SHAMSUTDINOVA YORKINOY ALIJONOVNA	Бош хисобчи ёрдамчиси	Комиссия аъзоси
<b>Член комиссии</b>	ABDUXOLIQOV G'AYRATJON ABDUMANNONOVICH	ТТБ бошлиғи	комиссия раиси
<b>Член комиссии</b>	XOSHIMOVA DILFUZA MAXAMATJONOVNA	пархез хамшираси	комиссия раиси
<b>Член комиссии</b>	RAYIMOV IKROMJON MUXTOROVICH	бош хисобчи	комиссия аъзоси
<b>Член комиссии</b>	ISAKOVA ADINA ABDULXAMIDOVNA	котиба	комиссия котибаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 15.12.2022 года № лота 207182.

Метод оценки предложений – Бальный метод

Мин. балл: 10

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	Корасув шахар тиббиёт бирлашма КТМП мавжуд биносининг ер туласини жорий таъмирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	усл. ед
Цена товара (услуги) за единицу	1170 978 275.00
Стартовая сумма	1170 978 275.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танлов иштирокчисининг Солиқ ва бошка мажбуриятлардан қарзи йўқлиги ҳақида ДСҚ маълумотномаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов иштирокчисининг Солиқ ва бошка мажбуриятлардан қарзи йўқлиги ҳақида ДСҚ маълумотномаси

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ХОН САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ</b>	5	Танлов иштирокчисининг Солиқ ва бошка мажбуриятлардан қарзи йўқлиги ҳақида ДСҚ маълумотномаси	5	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>SAMANDAR SHIJOATI MCHJ MCHJ</b>	5	1160000000	3	Экспертная		

Критерий №2 Танлов катнашчиси тўғрисида умумий маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов катнашчиси тўғрисида умумий маълумот

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ХОИ САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ</b>	5	Танлов катнашчиси тўғрисида умумий маълумот	5	Экспертная		
<b>SAMANDAR SHIJOATI MCHJ MCHJ</b>	5	1160000000	3	Экспертная		

Критерий №3 Коррупцияга йўл қўймаслиги тўғрисида тендер комиссиясига кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Коррупцияга йўл қўймаслиги тўғрисида тендер комиссиясига кафолат хати

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ХОИ САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ</b>	5	Коррупцияга йўл қўймаслиги тўғрисида тендер комиссиясига кафолат хати	5	Экспертная		
<b>SAMANDAR SHIJOATI MCHJ MCHJ</b>	5	1160000000	4	Экспертная		

Критерий №4 Курилиш (таъмирлаш) майдонини (объектини) хақиқатдан бориб ўрганиб, куздан кечирганлиги тугрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш (таъмирлаш) майдонини (объектини) хақиқатдан бориб ўрганиб, куздан кечирганлиги тугрисида маълумотнома

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ХОИ САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ</b>	5	Курилиш (таъмирлаш) майдонини (объектини) хақиқатдан бориб ўрганиб, куздан кечирганлиги тугрисида маълумотнома	5	Экспертная		
<b>SAMANDAR SHIJOATI MCHJ MCHJ</b>	5	1160000000	4	Экспертная		

Критерий №5 Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг ишларини бажаришда фойдаланадиган машина ва механизмлари руйхати



Тип: Текстовое значение

Описание: Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг ишларини бажаришда фойдаланадиган машина ва механизмлари руйхати

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ХОН САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ</b>	5	Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг ишларини бажаришда фойдаланадиган машина ва механизмлари руйхати	5	Экспертная		
<b>SAMANDAR SHIJOATI MCHJ MCHJ</b>	5	1160000000	4	Экспертная		

Критерий №6 tender.mc.uz сайтидаги рейтинг.

Тип: Текстовое значение

Описание: tender.mc.uz сайтидаги рейтинг.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ХОН САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ</b>	5	tender.mc.uz сайтидаги рейтинг.	5	Экспертная		
<b>SAMANDAR SHIJOATI MCHJ MCHJ</b>	5	1160000000	4	Экспертная		

Критерий №7 Танловдаги объектга хос объектларда охирги 3 (уч) йиллик иш тажрибаси.

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловдаги объектга хос объектларда охирги 3 (уч) йиллик иш тажрибаси.

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ХОН САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ</b>	5	Танловдаги объектга хос объектларда охирги 3 (уч) йиллик иш тажрибаси.	5	Экспертная		
<b>SAMANDAR SHIJOATI MCHJ MCHJ</b>	5	1160000000	4	Экспертная		

Финансовое значение

Наименование товара: Услуга по текущему ремонту нежилых зданий

Ценовые предложения				Порядок оценки ценовых предложений	
Наименование участника	Стартовая сумма (UZS)	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов	Итоговое значение (UZS)
<b>SAMANDAR SHIJOATI MCHJ</b>	1 170 978 275.00	1 160 000 000.00 UZS	1 160 000 000.00	00.00	1 160 000 000.00

<b>МЧН</b>					
<b>ХОН САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ</b>	1 170 978 275.00	1 147 500 000.00 UZS	1 147 500 000.00	00.00	1 147 500 000.00

Оценка участников финансовой части составила:

Стартовая сумма составляет 1 170 978 275.00 UZS

Наименование участника	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
<b>SAMANDAR SHIJOATI MCHJ MCHJ</b>	1 160 000 000.00 UZS	1 160 000 000.00	00.00	00.00	1 160 000 000.00	13.12.2022 14:57:10	19.78448
<b>ХОН САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ</b>	1 147 500 000.00 UZS	1 147 500 000.00	00.00	00.00	1 147 500 000.00	13.12.2022 13:30:57	20

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
<b>SAMANDAR SHIJOATI MCHJ MCHJ</b>	59.4288	19.78448	79.21328
<b>ХОН САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ</b>	80	20	100

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 207182 от 15.12.2022 года на приобретение Qorasuv shahar Tibbiyot birlashmasi KTMPning podval qismini xonalar yetishmasligi sababli kasallar qabul qilish uchun xonalarga o'zgartirish joriy ta'mirlash определила победителем:

ХОН САНОАТ-МОНТАЖ МЧЖ  
204471356

и резервный исполнитель: SAMANDAR SHIJOATI MCHJ MCHJ ( 301084149 )

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	URINBAYEV UKTAMJON DJUMABAYEVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	ABDUXOLIQOV G'AYRATJON ABDUMANNONOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	XOSHIMOVA DILFUZA MAXAMATJONOVNA	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	RAYIMOV IKROMJON MUXTOROVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	ISAKOVA ADINA ABDULXAMIDOVNA	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

**207182 лот юзасидан шакланган дастлабки  
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон  
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилади.

Муҳокама тугаган сана:

19.12.2022 09:24


Комиссия раиси:

URINBAYEV UKTAMJON DJUMABAYEVICH

“TASDIQLAYMAN”

Qorasuv shaxar tibbiyot  
birlashmasi boshlig‘i v/b

..... U.Urinbaev



Qorasuv shahar Tibbiyot birlashmasi KTMPning podval qismini xonalar yetishmasligi sababli kasallar qabul qilish uchun xonalarga o'zgartirish joriy ta'mirlash ishlari

### TE X N I K T O P S H I R I Q


№	Asosiy ma'lumotlar	Ishtirokchilar uchun ma'lumotlar
1	Ob'ekt nomi	Qorasuv shaxar tibbiyot birlashmasi
2	Buyurtmachi	Qorasuv shaxar tibbiyot birlashmasi
3	Buyurtmachi uchun asos	Qorasuv shahar Tibbiyot birlashmasi KTMPning podval qismini xonalar yetishmasligi sababli kasallar qabul qilish uchun xonalarga o'zgartirish joriy ta'mirlash ishlari
4	Ob'ektning joylashgan o'рни	Qorasuv shaxar Mustaqillik MFY Andijon ko'cha 1-uy
5	Qatnashuvchilar uchun talablar	Loyixa smeta xujjatlarda ko'rsatilgan ishlarni sifatli va qisqa muddatlarda bajarish va o'z vaqtida topshirish
6	Tijoriy taklif taqdim etish shartlari	Tashkilot nizomi va ro'yxatdan o'tkazilgani to'g'risida guvoxnoma, soliqdan va boshqa majburiy to'lovlardan qarzi yo'qligi to'g'risida, tashkilot balansida mavjud mashina-mexanizmlari to'g'risida, pudratchining qurilish vazirligi maxsus elektron portalida reytingi mavjudligi to'g'risida (DDD yoki CC bo'lishi), injener va texnik xodimlar to'g'risida, ishtirokchilarning oxirgi uch yil mobaynida bajargan ishlari to'g'risida (Gos.Akt) xamda fizik xajmlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etish shart. Ishtirokchilarning xisob raqamida taklif etilgan qiymatning 20 foizi mavjud bo'lishi xamda bankning kafolat xati bo'lishi shart.
7	Bajarilgan ishlar xisob kitobi	Bajarilgan ishlar dalolatnomasiga mos xolda to'lanadi.
8	Ish turi	Loyixa smeta xujjatlarida ko'rsatilgan ishlarini bajarish

**“TASDIQLAYMAN”**

Qorasuv shahar tibbiyot  
birlashmasi boshlig‘i

 U. Urinboev

“17” oktabr 2022 yil



**Qorasuv Tibbiyot birlashmasi KTMPning podval qismini xonalar yetishmasligi  
sababli kasallar qabul qilish uchun xonalarga o‘zgartirish joriy ta‘mirlash  
ishlari**

**NUQSONLAR DALOLATNOMASI**

“17” oktabr 2022 yil

Qorasuv shahri

Biz quyida imzo qo‘yib ushbu dalolatnoma tuzuvchilar tibbiyot birlashma boshlik movini A. Sheraliev, KTMP mudiri G. Solieva, iktisodchi Yo. Shamsuddinovalar **“Qorasuv Tibbiyot birlashmasi KTMPning podval qismini xonalar yetishmasligi sababli kasallar qabul qilish uchun xonalarga o‘zgartirish joriy ta‘mirlash”** ishlarini bajarish uchun KTMP binosining podval qismida bajariladigan ishlarni o‘rgandik va quyidagi ish turlarini bajarish zarur deb hisoblaymiz:

t/r	Bajariladigan ishlar	O‘lchov birligi	Miqdori
	<b>Devorlar va pardadevorlar</b>		
1	Mavjud pardadevorlarni (peregorodkalarini) buzish	m2	114,0
2	Yangi oynavand pardadevorlar o‘rnatish	m2	34,0
3	Oynavand pardadevorlar qiymati	m2	34,0
4	Devorlarning eski suvoqlarni ko‘chirish	m2	590,0
5	Devorlarni yaxshilangan sementli suvoq qilish	m2	590,0
6	Devorlarni shpaklyovka qilish	m2	590,0
7	Devorlarni suvli emulsiyali bo‘yoq qilish	m2	418,0
8	Devorlarni moyli bo‘yoq qilish	m2	160,0
9	Devorlarga keramik plitkalar qoplash	m2	12,0

t/r	Bajariladigan ishlar	O'lchov birligi	Miqdori
10	Derazalarni balandligini oshirish uchun deraza o'rnilarini pastki qismini buzish	m3	4,6
11	Eshik va derazalarni otkoslarini sementli suvoq qilish	m2	16,0
12	Eshik va derazalarni otkoslarini shpaklyoka qilish	m2	16,0
13	Eshik va derazalarni otkoslarini moyli bo'yoq qilish	m2	16,0
	<b>Pollar</b>		
1	Beton qatlam yotqizish (подстилающий слой из бетона)	m3	414,0
2	Tekislovchi qatlam yotqizish (выравнивающий слой из бетона)	m2	414,0
3	Quyuma pol yotqizish (наливной пол) 5 mm	m2	414,0
4	Relin materialidan pol qilish 2 mm	m2	63,0
5	Laminat pol qilish	m2	351,0
6	Plastik materialdan plintus o'rnatish	p/m	268,0
	<b>Eshiklar va derazalar</b>		
1	Eski yaroqsiz yog'och eshiklarni chiqarish	m2	16,0
2	Eshik o'rnatish (alyuminiy profildan)	m2	4,0
3	Eshik o'rnatish MDFdan	m2	12,0
4	Eski yaroqsiz yog'och derazalarni chiqarish	m2	10,0
5	Yangi derazalar o'rnatish PVX	m2	23,0
	<b>Shiftlag</b>		
1	Shiftlarni eski suvoqlardan tozalash	m2	414,0
2	Shiftlarni shpaklyovka qilish	m2	414,0
3	Shiftlarni suvli emulsiya bilan bo'yoq qilish	m2	414,0
	<b>Tashqi pardoqlash ishlari</b>		



t/r	Bajariladigan ishlar	O'lchov birligi	Miqdori
1	Sokol qismiga keramogranit qoplash	m2	138,0
2	Keramogranit qiymati	m2	138,0
3	Beton otmostkalarini ta'mirlash	m2	90,0
	<b>Zinapoyalar va soyabonlar</b>		
1	Podvalga tushish zinapoyalarni betondan yangi qilish	ta	2
2	Podvalga kirish eshiklarini ustiga soyabonlarini o'rnatish	ta	2
3	Zinapoyalarga keramogranit plitkalarini qoplash	m2	10,0

**Izoh:** Dalolatnomani tuzishda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, shuningdek boshqa qurilish va ta'mirlash ishlari bilan bog'liq ishlar hisobga olinmadi. Ish xajmlarini KTMPning podval qismini joriy ta'mirlash uchun bajarilishi zarur bo'lgan ishlar ushbu dalolatnomada ko'rsatilmagan bo'lsada, joriy ta'mirlash ishlari loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqishda, harajatlar smetasida hisobga olib bajarilsin. Dalolatnomada ko'rsatilgan ish xajmlari bilan smetadagi ish xajmlari bilan tafovut bo'lsa, ish xajmlari smeta hisob-kitoblari bo'yicha qabul qilinsin.

Imzolar:

  
\_\_\_\_\_

A. Sheraliev

  
\_\_\_\_\_

G. Solieva

  
\_\_\_\_\_

Yo. Shamsuddinova



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Андижон вилояти

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy. Tel/Faks (374) 223-57-82, E-mail: ekspert-2312@mail.ru. www.ekspertiza.mc.uz [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: MASHRAPOV AXRORBЕК AKRAMOVICH

Sana: 05-12-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 80417**

**Ob'ekt nomi** «Qo'rg'ontep tuman Qorasuv SHTB KTMPsi mavjud binosining yerto`la qismini joriy ta'mirlash»

**Buyurtmachi** - "Andijonfuqaroloyiha" MChJ

**Bosh loyihachi** - "Andijonfuqaroloyiha" MChJ

**Litsenziya** AL-000941 sonli 21.06.2020 yildan cheksiz. O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi

**Moliyalashtirish manbai** - byudjet mablag'lari hisobidan

**Bosh pudratchi** - tender savdolari orqali

**Qurilish turi** joriy ta'mirlash

**Murojaat raqami:** № 76861

**1. Loyihalash uchun asos**

Xalq deputatlari Qo'rg'ontepa tuman kengashining 10.10.2022 yildagi №VI-49-102-1-23-K/22-sonli qarori.

Qorasuv shaxar tibbiyot birlashmasi boshlig'i tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

Buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti o`rtasida 2022 yilda tuzilgan shartnoma.

Qorasuv shaxar tibbiyot birlashmasi boshlig'i tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan nuqsonlar dalolatnomasi.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

Lokal resurs xujjatlar.

Tushuntirish xatlari.

Yig'ma lokal xujjatlar.

Ishchi chizmalari.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

Peshxisob xisoblari bo'yicha: "Qo'rg'ontep tuman Qorasuv SHTB KTMPsi mavjud binosining yerto`la qismini joriy ta'mirlash", ob'ekti peshxisob xisoblari bo'yicha, tasdiqlangan nuqson dalolatnoma asosida quyidagi ish turlari bajarilishi ko'zda tutilgan: Pardadevorlarni buzish, MDF eshik bloklarini o`rnatish, PBX profildan deraza va alyumin profildan vitraj o`rnatish, PVXdan deraza tokchalarini o`rnatish. Shift yuzasiga gipsokarton qoplash, quruq gips qorisjmasi bilan tekislash, suvli emulsiya bilan bo`yash. Devor yuzasiga



gipsokarton qoplash, quruq gips qorisjmasi bilan tekislash, suvli emulsiya bilan bo'yash. Qo'l yuvish joylarida devor yuzasiga keramik plitka qoplash. Barcha xona va yo'laklarda yaroqsiz pol opamalarini buzish, tuproq to'ldirib, zichlab, izolyatsiya qatlamini yotqizib, beton pol, quyma pol, relin pol qoplamasini yotqizish. Yog'och plintus tortish va moyli bo'yoq bilan bo'yash.

Bundan tashqari, tasdiqlangan nuqson dalolatnoma asosida issiqlik tizimi va ventilyatsiya, suv va oqava suv tarmog'i, elektr montaj, hududni obodonlashtirish, metal qo'rg'on devor montaj qilish ishlarini bajarish ko'zda tutilgan.

Xisob kitob uchun "Resurslar metodi"dan foydalanildi.

#### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

#### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

#### **6. Ekspertiza natijalari.**

Tushuntirish xatining tartibga keltirilishi.

Ish xaqi xarajatlari Vaqtinchalik tartib bilan kelishilgan xolda tartib asosida aniqlangan:

- Quruvchilarning o'rtacha oylik ish xaqi xisobotlar asosida keltirilgan.

- Ijtimoiy sug'urtaga xisoblanish 2022 yil ko'rsatkichlari asosida qabul qilingan.

Pudratchi xarajatlari ShNK-4.01.16-09ga asosan keltirilgan.

Buyurtmachi xarajatlari xisobga olinmagan.

Tavakkalchilik koeffitsienti xisobga olinmagan.

Mashina va maxsulotlar qiymati tegishli me'yoriy xujjatlar asosida aniqlik kiritilgan.

Ijtimoiy sug'urtaga o'tkazmalarni aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.12.2014 yildagi PFP-2270 sonli Farmoniga kiritilgan №25 sonli ilovadan foydalanish zarur.

Taqdim etilgan 15% QQS bilan hisoblangan umumiy miqdori 1236820,054 ming so'mni tashkil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so'ng 65841,9 ming so'm qurilish materillari narhlari hisobidan kamaytirildi.

#### **7. Xulosalar.**

Peshxisob xisoblari bo'yicha: "Qo'rg'ontepr tuman Qorasuv SHTB KTMPsi mavjud binosining yerto'la qismini joriy ta'mirlash", ob'ektini quyidagi texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra keyingi kelishuv va tender savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etiladi:

Me'yoriy mehnat sarfi - 1273,186 kishi/kun.

Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich)

miqdori 15% QQS bilan - 1170978,275 ming so'm.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang'ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

ShNK 1.03.06-13da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun

javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

**Bosh mutaxassis:** Xaldarov Jur'at Alimdjanovich